



## BOLALAR ADABIYOTI ASARLARI ORQALI BOSHLANG`ICH SINFLAR O`QUVCHILARINI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH

**To`xtayeva Mohichehra Husen qizi, BuxDU talabasi**

**Ilmiy rahbar: Istamova Shohida Maxsudovna,  
BuxDU dotsenti**

Vatan, Ona-yurt mavzusi mustaqillik yillarida qayta tiklangan, qariyb bir asrlik tarixda armonga aylangan ulug` orzuning ushalihi samarasidir. Negaki, XX asrning boshlarida jadid ma`rifatparvarlari Turkiston o`lkasining ozodligi, o`rta asrlardagi dunyoga mashhur madaniyatini tiklash uchun tinmay kurashadilar. O`z maqola va she`rlarida, asarlarida ona-yurtni madh etish orqali, yosh avlodga uning uchun qayg`urish lozimligini uqtirishga harakat qiladilar.

Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” darsligini shu ma`noda e`tirof etish mumkin. Bilamizki, bu darslik 1913 yilda bosilib chiqqan. 1917 yilda ikkinchi marta nashr qilingan. “Turkiy guliston yoxud axloq” asari XX asr boshlaridagi pedagogik fikrlar taraqqiyotini o`rganish sohasida katta ahamiyatga egadir. Bu asar axloqiy va ta`limiy asar bo`lib, unda adib o`z ijtimoiy va axloqiy-ta`limiy qarashlarini bayon etadi. XX asr boshlarida bunday asarni o`zbek tilida birinchi bo`lib Abdulla Avloniy yaratgan va ta`lim – tarbiya ishlarida uni tatbiq etgan. Muhimi esa asarda “Vatanni suymak” haqida keng to`xtalib o`tadi: “Vatan. Har bir kishining tug`ulib o`skan shahar va mamlakatini shu kishining vatani deyilur. Har kim tug`ulgan, o`sgan yerini jonidan ortiq suyar. Hatto bu vatan hissi-tuyg`usi hayvonlarda ham bor. Agar bir hayvon o`z vatanidan–uyuridan ayirilsa, o`z yeridagi kabi rohat-rohat yashamas, maishati talx bo`lub, har vaqt dilining bir go`shasida o`z vatanining muhabbati turar.”<sup>47</sup>

Adib mavzuga chinakam pedagogik nuqtai nazardan yondashadi. Vatanga berilgan ta`rif kichik yoshdagi o`quvchilar tafakkuriga mos hamda ixcham shaklda berilganki, bu tushunchani yanada aniqlashtirish maqsadida esa asosli ravishda hayvonlarga xos instinktmi misol keltiradi. Aytaylik, itni yo mushukni o`zi tug`ulib, odamlariga o`rgangan bir hovlidan boshqa bir joyga etib qo`ysak, u ikkinchi xonadonga osonlikcha moslasholmaydi. Yo qochib ketadi, yoki, yangi egalariga avvalgisidek, erkanib, sadoqat ko`rsatmaydi. Bu bolalarga ham tanish manzara bo`lganidan pedagog yozuvchi Abdulla Avloniy suymoq–mavhum tushunchani aniqlashtirishda o`rinli qiyosdan foydalangan. Ana shundan so`ng shoir asosiy

<sup>47</sup> Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 jildlik. 2-jild. Toshkent, “Ma`naviyat”, 1998. –B.55.



muddaoga ko`chadi: “Biz turkistonlilar o`z vatanimizni jonimizdan ortiq suydig`imiz kabi, arablar Arabistonlarini, qumlik, issiq cho`llarini, Eskimo`lar shimol taraflarini, eng sovuq qor va muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson yerlarga o`z vatanlarini tashlab hijrat qilurlar edi. Bobolarimiz: “Kishi yurtida sulton bo`lguncha, o`z yurtida cho`pon bo`l”,–demishlar.”<sup>48</sup>

Boshlang`ich ta`lim jarayoni yosh avlodni eng yaxshi insoniy tuyg`ular ruhida tarbiyalashga, komil inson bo`lib yetishuviga, bolaning beg`ubor qalbida go`zallikni anglash va asrab-avaylash tuyg`ularini shakllantirishga mas`uldir.<sup>49</sup> Shunday ekan, unda berilgan badiiy-didaktik matnlar ijodkorining qalb qo`ridan yaralgan har bir satr, har bir misra ana shu ulkan maqsadlarga xizmat qilishi, ularning qalbida o`zi tug`ulib o`sgan, kindik qoni to`kilgan tuproqqa mehr-

Shu ma`noda, boshlang`ich sinf ona tili va o`qish savodxonligi hamda o`qish darsliklaridagi badiiy ijod namunalarining mavzu ko`lami benihoya keng. Unda avvalo, vatanparvarlik, vatan tarixi, buyuk ajdodlar qahramonligi, mehnatkash dehqonu hunarmandlarning mehr bilan yaratilgan timsoli yetakchi o`rin egallaydi. Shuningdek, millatning eng asosiy belgilaridan biri bo`lgan ona tilining qadr-qimmatini ulug`lash, sharafdash ham alohida o`rin tutadigan mavzulardandir. Rost, har bir ijodkor uchun eng qadrli narsa–ona-Vatan, ona-xalq, ona tili. Bunday asarlarni yaratishda asosiy maqsad esa o`sib kelayotgan yosh avlodni ona-Vatanga, ona-xalqqa, ona-tiliga, ota-bobolar ruhiga mehr-muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, ular qalbida munosib avlod, farzand bo`lish tuyg`ularini shakllantirishdir.

Aytaylik, birgina T.Adashboyevning ona-Yurt madhi o`zbek bolalar adabiyotida bu mavzu talqini haqida yaxlit tasavvur uyhg`ota oladi. Jumladan, shoir “Saylanma”sining “Ona Vatan” nomli birinchi fasli Vatan vasfiga bag`ishlangan she`rlarni qamrab oladi. Shoirning Vatanga bag`ishlovi shunday boshlanadi:

Ona Vatan,  
Durdona Vatan!  
Kindik qonim to`kilgan go`sha  
Menga ka`ba,  
Yagona vatan!  
Bobolardan merossan–qadim,

<sup>48</sup> Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 jildlik. 2-jild. Toshkent, “Ma`naviyat”, 1998. –B.55.

<sup>49</sup> Istamova Sh.M Boshlang`ich sinflarda xalq og`zaki ijodini o`rgatish. **O`quv-usuliy qo`llanma**. Buxoro: Durdona, 2021. 52 b.



Bag`ishlovni Senga atadim.<sup>50</sup>

Bu gaplar shunchaki ta`rif-tavsif emas, balki shu yurt farzandining yurak qa`ridan jo`shib chiqqan dil sadolari. Shoirning ona-Vatan –kindik qoni to`kilgan tuproq sha`niga bag`ishlangan ushbu madhiyasi shaklan qanchalar soda, muxtasar bo`lsa, mazmunan shu qadar purhikmat, sermazmun. Chunki, Vatanning ka`baga o`xshatilishi shunchaki ta`rif emas, balki uning yakkayu yagonaligi, “bobolardan meros” qolgan – ko`z qorachig`iday azizu mukarramligini ta`kidlovchi qalb to`ridan otilib chiqqan jo`shqin sadodir. T.Adashboyevning ushbu turkumdagi she`rlarida ona-vatan go`zalliklarini madh etish, yosh kitobxonni uni ko`z qorachig`iday avaylab-asrashga, qadriga yetishga chorlash ruhi birday ustivorlik qiladi.

«Ona tili va o`qish savodxonligi» darsliklaridagi materiallar sinfdan - sinfga o`tgan sari mavzu jihatidan ham, mazmun jihatidan ham kengaya boradi. Darsliklardagi har bir mavzu uchun tanlangan matnlarning janriy rang-barangligiga, poetik mukammalligiga, o`quvchilarning bilim darajasi va yosh xususiyatlariga mos kelishiga alohida e`tibor qaratiladi. Ijtimoiy-tarixiy mazmundagi mavzular Vatanimiz o`tmishi, xalqimiz hayoti, mardonavor kurashi, ulug` siymolar tomonidan amalga oshirilgan ishlar, tarixiy sanalar to`g`risida muayyan tasavvur beradi. Beruniy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa ajdodlarimiz haqidagi matnlar shular jumlasidandir. Bu xildagi asarlar o`quvchilarni faqat o`tmishimiz bilan tanishtirib qolmasdan, Vatan oldidagi farzandlik burchi va mas`uliyatini teran anglashga ham yordam beradi. Ularda Vatanga muhabbat tuyg`usi shu tariqa shakllanadi. Vatanimiz o`tmishi haqida hikoya qilingan asarlar bilan tanishish va ularni tahlil qilish jarayonida o`quvchilar o`tmish bilan bugungi kunni taqqoslash imkoniga ega bo`ladilar. Jamiyat taraqqiyoti xususida qisqacha bo`lsa-da, tushuncha hosil qiladilar.

Boshlang`ich sinflarda, xususan, o`qish kitoblaridagi ona-yurt madhi ham shu ma`noda sinfdan-sinfga o`tilgani sayin teranlasha boradi. Ularning janriy ifodasi, mavzulari kengayib, mazmuni chuqurlashadi.

Xullas, inson o`zi tug`ilib o`sgan joyi–ona-Vatanini hammadan yaxshi deb bilishi shu kabi matn-maqolalar orqali boshlang`ich sinflardayoq ko`nikmaga aylantirila boradi. Aslida bu baayni zarur jarayon ham. Shu sababli, o`uvchining ilk savodi chiqqanidayoq, har bir sinfga ko`chgani sayin, ularning sevimli o`qish kitobi ana shunday da`vatkor mavzuni rang-barang janrda ifoda etuvchi maqola, matn, she`r, hikoya hamda maqollar bilan tanisha boradi.

<sup>50</sup> Adashboyev T. Orzularim-qo`sh qanotim. T., 2003. -B.11



## Adabiyotlar ro'yxati

1. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 jildlik. 2-jild. Toshkent, "Ma'naviyat", 1998. –B.55.
2. Adashboyev T. Orzularim–qo`sh qanotim. T., 2003. –B.11
3. Istamova Sh.M Boshlang'ich sinflarda xalq og'zaki ijodini o'rgatish. **O`quv-usuliy qo'llanma.** Buxoro: Durdona, 2021. 52 b.